

**Oqoltin tumani kasb-hunar maktabida o'quvchilar bilan
"Jaholatga qarshi ma'rifat" to'g'risida o'tkazilgan
BAYONI**

21.11.2022 yil.

Yig'ilish raisi:	Oqoltin tumani kasb-hunar maktabi direktori:	E. Babayev
Ishtirok etganlar:	Oqoltin tuman kasb-hunar maktabi YOBIBDO':	X. Sharobitdinova
	Oqoltin tumani Adlya bo'limi boshlig'i:	A. Ziyayev
	Oqoltin tumani Yoshlar bilan ishlash bo'yicha mudir:	S. Nurmatov
	Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Oqoltin tuman bosh mutaxassisi	D. Mardiyev
	Inspektor psixolog leytenant:	X. Rayimqulov

KUN TARTIBI

1. Jaholatga qarshi ma'rifat.

2. Tinchlik va osoyishtalik.

So'zga **Oqoltin tuman kasb-hunar maktabi direktori E.O. Babayev** o'quvchilarimizni bilimli bo'lishlari "**Jaholatga qarshi ma'rifat**" shiori ostidagi ushbu tadbirdan o'zlariga kerakli bo'lgan hulosalarni chiqarib olishlari ko'proq kitob o'qib ko'proq bilimlar egalashlari uchun mazkur imkoniyatlardan to'la to'kis foydalanish jamiyat va davlat uchun fidokor shaxs bo'lish har bir yoshning burchidir. Buning uchun esa ular avvalo dunyoviy va kasb fanlarini chuqur o'zlashtirish shuningdek o'zbek halqining mexnatsevarlik oilaning muqaddas bilish insonlarga mexribonlik, do'stlarga sadoqat, vatanparvarlik kabi tarixan e'zozlab kelinayotgan qadryatlarni o'zida shakllantirishi talab etiladi. Yoshlarimiz uchun mamlakat suvereniteti territoriyal birligi hamda mustaqil siyosiy yuritish xuquqini mustaxkam himoya qiluvchi fuqoro bo'lish o'zlarida milliy an'ana va halqimiz mintalitetiga yod g'oyalarga nisbatan mafkuraiy qobiq shakllantirish sharaflil va ma'suliyatli burch hisoblanishi haqida batafsil gapirib o'tdi.

So'zga **Oqoltin tuman Adlya bo'limi boshlig'i A. Ziyayev** chiqib o'quvchilarimizni bilimli bo'lishlari prezidentimizning tashabuslari bilan ko'plab shart- sharoitlar yaratiganligi bo'sh vaqtlardan unumli foydalanish kerakligini takidlab o'tdi u o'zi bilan eng faol va eng bilimli o'quvchilarni taqdirlash

maqsadida kitoblar olib kelganligini bayon qildi va o'zi anashunday o'quvchilarni taqdirlab kelgusida bundanam yaxshi natijalarga erishishlarini takidlab o'tdi.


So'zga **Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Oqoltin tuman bosh mutaxassisi D.Mardiyev** o'z fikr muloxazalarini bildirib o'tdi. Zamonaiy voqeylik diniy ekstremizm va xalqaro terorizmning saloxiyati sifat va miqdor jixatidan jiddiy o'sganini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida aqidaparastlik va terorizm global xavfsizlikka yo'naltirilgan jiddiy taxdidga aylanishiga zamin yaratmoqda. Terrorizm- muayyan siyosiy maqsadlarda jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish va axolining keng qatlamlarda vaxima va qo'rquv uyg'otish uchun zo'ravonlik ishlatish bilan qo'rqitish. Terrorizm yashirin ruxdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat xokimiyatini egallash maqsadida qo'laniladi. Diniy ekstremistik tashkilotlarni asosiy faoliyat uslublari: Ekstremistik ruxdagi adabiyot, video va audio tasmlarni tarqatish xufiya guruxlar tuzish va faoliyatini yo'lga qo'yish yashirin diniy "**xujralada**" o'qiyotganlarga mutaasib tushunchalarni singdirish ijtimoyi siyosiy xolatni keskin qoralash, davlat va diniy idora vakillarini obro'sizlantirish terrorchilik xarakatlarini o'tkazishdir.

So'zga **Oqoltin tuman Inspektor psixolog leytenant X. Rayimqulov**

chiqdi diniy ekstremistik guruxlarning bosh maqsadi "**xalifalik**" yoki "**islom amirligi**" davlati tuzish shiori ostida siyosiy xokimiyatini egallashdir. shbu maqsadga yetish yo'lida axoliga xanafiylik mazxabiga zid mutaasib g'oyalarni singdirish, ijtimoyi-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, xukumatga tazyix o'tkazish, axoli ichida qo'rquv, parokandalik xamda davlatga nisbatan ishonchsizlik yg'otish xamda respublika raxbariyati tamonidan diniy soxada olib borilayotgan siyosatni obro'sizlantirish kabi oraliq maqsadlarga bo'ysundirilgan faoliyat olib boriladi. "**JIXOD**" so'zi lug'atda inson tamonidan jamiki imkoniyatni ishga solib, istalgan maqsadga erishish yo'lida xarakat qilish manosini anglatadi. **Imom Termiziy, Ibn Xibbon va Daylamiy** rivoyat qilgan xadisi sharifda **Rasulloxu alayxi vassallam** : "**Jixodning afzali Allox taolloning**" zotida xavoyi nafsinga qashi jixod qilmog'ingdir" deyilgan. Darsni o'zlashtirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solib xarakat qilayotgan tolibi ilmni mujtaxid talaba deb ataladi. Binobarin uni ilmiy jixod qilmoqda desa bo'ladi. Sha'riy masalalarni bor imkonini ishga solib xarakat qilgan ulkan olimlarni xam mujtaxid deb atalgan. Undoq kishilar sha'riy ilmlarda jixod qilganlari uchun shu nom bilan atalganlar." **Qur'on o'rgatish**" baxonasida, aslida, mutaasib g'oyalar targ'ib qilinadigan yashirin "xujra" va yig'inlarga bormasligi, turli "da'vatchi"lardan noqonuniy diniy mazmundagi disk, kasetalarni olmasligi lozim deya o'z so'zlarini yakunladilar. Keyingi so'z navbatini **Oqoltin tuman kasb-hunar maktabi YOBIBDO' X.Sharobitdinova** so'zga chiqib Mamlakatimizda aqidaparastlikga qaratilgan amaliy va manaviy- ma'rifiy tadbirlar qonuniy poydeorga asoslanadi. Konstitutsiyamizning 31-moddasida: Xamma uchun "**vijdon**" erkinligi kafolatlanadi. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi deb belgilab qo'yilgan. Yoshlar turli aqidaparast da'vatchilarining aldoviga uchib qolmasligi, xususan, go'yoki O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik haqidagi Kodesning 241-moddasiga muvofiq diniy ta'lim berish tartibini buzish eng kam oylikni 5-10 miqdorida jarima to'lash yoki 15 sutka qamoq jazosi

belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyi kodeksining 229 moddasi 2 bandida esa, maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay trib va diniy tashkilot markaziy boshqaruv organing ruxsatisiz xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish agar ma'muriy jazodan so'ng sodir etilgan bo'lsa kam oylikning ellik, yuz, ikki yuz miqdorida jarima to'lash uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan maxrum qilish nazarda tutilgan **Ma'muriy javobgarlik haqida**. Kodeksning 184-moddasi 2-bandiga muvofiq, diniy mazmundagi materiyallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash olib kirish yoki tarqatish eng kam oylikni 25-100 miqdorida jarima to'lash mansabdor shaxslar esa 50-100 miqdorida jarima to'lash bilan jazolanadi. Jinoyi kodeksning 244-moddasi 3-bandiga ko'ra yuqoridagi noqonuniy xatti xarakat agar ma'muriy jazodan so'ng sodir etilgan bo'lsa eng kam oylikni 100,200 miqdorida jarima to'lash yoki 3-yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi deb o'z so'zlarini yakunladilar. Respublikamizda yoshlarni ilm ma'rifatli turli sohalarda yetuk mutaxassis jismonan barkamol inson bo'lib yetishishga keng sharoitlar yaratib berilgan.

**Oqoltin tuman kasb-hunar
maktabi direktori:
YoBIBDO':**



**E.Babayev
X.Sharobitdinova.**

